



## THE VERB SYSTEM IN THE WORKS OF SODIQ HIDAYAT AND ZOYA PIRZOD

**Sabohat Bakhadirova**

*1st-year Master's degree student*

*Higher School of Iranian and Afghan Studies*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

[baxadirovasabohat@gmail.com](mailto:baxadirovasabohat@gmail.com)

*Tashkent, Uzbekistan*

**X. Alimova**

*Professor of the Higher School of Iranian and Afghan Studies at TSUOS*

*Doctor of Philological Sciences*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** persian language, compound verbs, simple verbs, light verbs, nominal component, structural-semantic analysis, Sadegh Hedayat, Zoya Pirzad, linguistic transformation, diachronic study.

**Received:** 25.03.26

**Accepted:** 26.03.26

**Published:** 27.03.26

**Abstract:** This article examines one of the most complex and semantically multilayered components of the Persian verbal system — compound verbs — from a structural and semantic perspective. The main objective of the study is to identify the patterns of formation, grammatical models, and semantic shifts of compound verbs derived from simple verbs through a comparative analysis of early 20th-century and 21st-century Persian prose.

The research material is based on selected passages from *Būf-e Kūr* by Sadegh Hedayat and *Cherāgh-hā rā man khāmūsh mīkonam* by Zoya Pirzad. The compound verbs identified in these texts were classified according to their structural models (noun + verb, adjective + verb, etc.) and semantic groups, followed by a statistical analysis.

The findings indicate that in early 20th-century prose, compound verbs were predominantly used with a literary and stylistically marked function, whereas in 21st-century prose they tend to move toward a more colloquial usage, simplification, and increased communicative functionality. This shift reflects the historical and stylistic evolution of the Persian verbal system.

**SODIQ HIDOYAT VA ZOYA PIRZOD ASARLARIDA FE'L TIZIMI****Sabohat Baxadirova***Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi**1-kurs magistratura bosqichi talabasi*[baxadirovasabohat@gmail.com](mailto:baxadirovasabohat@gmail.com)*Toshkent, O‘zbekiston***X. Alimova***Filologiya fanlari doktori**TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi professori**Toshkent, O‘zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** fors tili, qo‘shma fe‘l, sodda fe‘l, yordamchi fe‘l, nominal qism, struktur-semantik tahlil, Sodiq Hidoyat, Zoya Pirzod, lisoniy transformatsiya, diaxronik tadqiqot.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fors tili fe‘l tizimining eng murakkab va semantik jihatdan serqatlam qismi — qo‘shma fe‘llarning struktur-semantik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi XX asr boshi va XXI asr fors nasri namunalarini qiyosiy tahlil qilish orqali sodda fe‘llar asosida yasalgan qo‘shma fe‘llarning yasalish qoliplari, grammatik modellari hamda ma‘no rivojlanishidagi o‘zgarishlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot materiali sifatida Būf-e Kūr (muallif — Sodiq Hidoyat) hamda Cherāgh-hā rā man khāmūsh mīkonam (muallif — Zoya Pirzod) asarlaridan olingan parchalar tanlab olindi. Mazkur matnlar asosida qo‘shma fe‘llar struktur modeli (ot + fe‘l, sifat + fe‘l va boshqalar) hamda semantik guruhlari bo‘yicha tasniflandi va statistik jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, XX asr boshidagi nasriy matnlarda qo‘shma fe‘llar ko‘proq kitobiy va badiiy-estetik yuklama bilan qo‘llanilgan bo‘lsa, XXI asr nasrida ularning so‘zlashuv uslubiga yaqinlashuvi, soddalashuvi va kommunikativ funksiyasining kuchayishi kuzatiladi. Bu holat fors tili fe‘l tizimida tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan uslubiy va semantik siljishlarni aks ettiradi.

---

**ГЛАГОЛЬНАЯ СИСТЕМА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ СОДИКА ХИДАЯТА И ЗОИ ПИРЗОД****Сабохат Бахадирова***Высшая школа иранистики и афганистики**Студентка 1 курса магистратуры**Ташкентский государственный университет востоковедения*[baxadirovasabohat@gmail.com](mailto:baxadirovasabohat@gmail.com)*Ташкент, Узбекистан*

**Х. Алимова**

*Профессор Высшей школы иранистики и афганистики ТГУВ*

*Доктор филологических наук*

*Ташкент, Узбекистан*

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** персидский язык, сложные глаголы, простые глаголы, вспомогательный глагол, номинальный компонент, структурно-семантический анализ, Садек Хедаят, Зоя Пирзад.

**Аннотация:** В данной статье исследуется один из наиболее сложных и семантически многослойных пластов глагольной системы персидского языка — составные глаголы — в структурно-семантическом аспекте. Основная цель исследования заключается в выявлении моделей образования, грамматических структур и семантических изменений составных глаголов, образованных на базе простых глаголов, посредством сопоставительного анализа персидской прозы начала XX и XXI веков.

Материалом исследования послужили фрагменты из произведения «Слепая сова» Садега Хедаята и романа «Я погашу огни» Зои Пирзад. Выявленные в текстах составные глаголы были классифицированы по структурным моделям (существительное + глагол, прилагательное + глагол и др.) и семантическим группам, после чего проведён их статистический анализ.

Результаты исследования показывают, что в прозе начала XX века составные глаголы преимущественно выполняют книжную и художественно-эстетическую функцию, тогда как в прозе XXI века наблюдается тенденция к их разговорной адаптации, упрощению и усилению коммуникативной роли. Данные изменения отражают историческую и стилистическую эволюцию глагольной системы персидского языка.

---

**Kirish.** Fors tili fe'l tizimining o'ziga xosligi. Fors tili o'zining ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida fonetik, sintaktik va ayniqsa morfologik jihatdan sezilarli o'zgarishlarga uchragan tillardan biridir. Ushbu o'zgarishlar tilning ichki qonuniyatlari, nutq ehtiyojlari hamda kommunikativ qulaylik tamoyillari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. "Fors tili tarixiy taraqqiyoti davomida tahliliy (analitik) tilga aylanib bordi. Bunda sodda fe'llarning o'rini ism va yordamchi fe'ldan tashkil topgan qo'shma fe'llar egallashi tilning lug'at tarkibini boyitishning asosiy usuli bo'lib xizmat qildi." Morfologik tizimdagi eng muhim jarayonlardan biri sifatida sodda fe'llar sonining asta-sekin kamayib borishi va ularning o'rini "ism + yordamchi fe'l" qolipida yasalgan qo'shma fe'llarning egallashi qayd etiladi. Eronshunos olim Y.A. Rubinchikning fikricha, qo'shma fe'lning tabiati va

uning qo‘shma so‘z hamda so‘z birikmasiga munosabati masalalari, qo‘shma fe‘lning til sistemasida, ya‘ni grammatika va frazeologiya sohasida tutgan o‘rni hanuz to‘la aniqlanmagan.

Bugungi zamonaviy fors tilida faol qo‘llanilayotgan sodda fe‘llar soni nisbatan cheklangan bo‘lib, taxminan 150–200 ta atrofida ekanligi kuzatiladi. Tilning harakat va holatlarni ifodalash imkoniyatlarining asosiy qismi esa qo‘shma fe‘llar zimmasiga yuklangan. Natijada, murakkab semantik munosabatlar, psixologik holatlar, ijtimoiy va madaniy tushunchalar aynan qo‘shma fe‘llar orqali ifodalanmoqda.

Mazkur jarayon tilshunoslikda leksikalizatsiya hodisasi sifatida izohlanadi. Leksikalizatsiya jarayonida dastlab erkin birikma sifatida qo‘llangan birliklar asta-sekin barqarorlashib, mustaqil leksik birlik maqomini kasb etadi. Bu holat fors tilining lug‘aviy boyligini kengaytirish, ifoda imkoniyatlarini oshirish va nutqni yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shu bois qo‘shma fe‘llar fors tili fe‘l tizimining markaziy va eng faol qatlamlaridan biri sifatida alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

### **Fe‘llarning statistik tahlili va qiyosiy natijalar**

Mazkur tadqiqotda XX asr boshidagi nasr namunasi sifatida Sodiq Hidoyatning “Buf-e Kur” asaridan, zamonaviy nasr namunasi sifatida esa Zoya Pirzodning “Cherog’-ro xomush mikonam” asaridan uch betlik parchalar tanlab olindi. Har bir parcha ichidagi fe‘llar ajratildi va uch turga bo‘linib tahlil qilindi: sodda fe‘llar, qo‘shma fe‘llar va prefiksli fe‘llar.

Tahlil natijasiga ko‘ra, “Buf-e Kur” parchasida fe‘llarning 59 foizi sodda fe‘llarni, 28 foizi qo‘shma fe‘llarni va 13 foizi prefiksli fe‘llarni tashkil etdi.

Masalan, sodda fe‘l namunasi:

«دیدم در صحرای پشت اطاقم پیرمردی قوز کرده نشسته بود»

Bu yerda “دیدم” va “نشسته بود” fe‘llari voqeani bevosita tasvirlaydi.

Qo‘shma fe‘l namunasi:

«در اثر همین اتفاق از نقاشی بکلی دست کشیدم»

Bu gapdagi “دست کشیدم” qo‘shma fe‘l bo‘lib, qaror qabul qilish ma‘nosini bildiradi.

Yana bir qo‘shma fe‘l:

«تصور کردم شاید کار تجارتي با من دارد»

Bu yerda “تصور کردم” fikrlash jarayonini ifodalaydi.

Prefiksli fe‘l namunasi:

«در ذهنم فرو رفت»

«فرو رفت» — bu prefiksli fe‘l, chunki boshida فرو prefiksi bor va fe‘l ma‘nosini o‘zgartiradi.

Demak, Hidoyat matnida sodda fe‘llar ustunlik qiladi. Harakat ko‘pincha bevosita va qisqa shaklda ifodalanadi. Qo‘shma fe‘llar esa asosan ichki kechinma va ruhiy holatni ko‘rsatish uchun ishlatilgan.

Zoya Pirzod asari tahliliga ko‘ra esa boshqa natija kuzatildi. Tanlangan parchalarda fe‘llarning taxminan 49 foizi sodda fe‘llar, 45 foizi qo‘shma fe‘llar va 6 foizi prefiksli fe‘llarni tashkil etdi.

Sodda fe‘l namunasi:

«صدای ترمز اتوبوس مدرسه آمد»

Bu gapdagi “آمد” sodda fe‘l bo‘lib, oddiy voqeani bildiradi.

Qo‘shma fe‘l namunasi:

«دست کشیدم به پیشبندم و داد زدم»

Bu yerda “دست کشیدم” va “داد زدم” kundalik harakatni ifodalovchi qo‘shma fe‘llardir.

Yana bir qo‘shma fe‘l:

«تعریف میکنم»

Bu fe‘l muloqot jarayonini bildiradi.

Prefiksli fe‘l namunasi:

«کیف ها را با لگد پس زدم و دنبالش رفتم»

Bu gapda “پس زدم” harakat yo‘nalishini bildiruvchi prefiksli shakldir.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy nasrda qo‘shma fe‘llarning ulushi sezilarli darajada ortgan. Ular asosan dialog, oilaviy vaziyat va kundalik harakatni ifodalashda faol ishlatiladi.

Umumiy qiyosiy xulosaga ko‘ra, XX asr boshidagi nasrda sodda fe‘llar ustun bo‘lib, tasvir va ichki ruhiy holatni ifodalashga xizmat qiladi. Zamonaviy nasrda esa qo‘shma fe‘llar ko‘paygan va ular nutqiy hamda maishiy vaziyatni ifodalashning asosiy vositasiga aylangan.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, statistik ko‘rsatkichlar butun asar hajmiga emas, balki tanlangan uch betlik parchalarga asoslanadi. Shunga qaramay, natijalar fors tilida fe‘l tizimining zamonaviy davrda yanada analitik tus olganini ko‘rsatadi. Maqolada ko‘rib chiqiladigan asosiy qolip: Nominal qism (Ot yoki Sifat) + Sodda yordamchi fe‘l.

### **Qo‘shma fe‘llarning yasaliş mexanizmi (strukturasi)**

Yordamchi fe‘l harakatning yo‘nalishi, zamoni va xarakterini belgilaydi. Fors tilida ushbu vazifani bajaruvchi asosiy sodda fe‘llar guruhiga quyidagilar kiradi:

کردن (kardan) – "qilmoq".

شدن (sho‘dan) – "bo‘lmoq".

دادن (dâdan) – "bermoq".

زدن (zadan) – "urmoq".

داشتن (dâshtan) – "ega bo‘lmoq".

کشیدن (keshidan) – "tortmoq".

Qo‘shma fe‘llarning soni esa yuqorida keltirilgan «ot (ism) + fe‘l» tipidagi frazeologik model asosida to‘xtovsiz ortib bormoqda.

### **Sodiq hidoyat nasrida qo‘shma fe‘llar tahlili**

Sodiq Hidoyatning "بوف کور" (Buf-e kur) asari tili o'zining metaforik va intellektual salmog'i bilan ajralib turadi.

1- تجلی کردن (tajalli kardan) — Namoyon bo'lmoq. Arabcha "tajalli" (nur sochish) so'zi va forscha "kardan" birikib, subyektiv tasavvurdagi ko'rinishni ifodalaydi.

2- گمان کردن (go'man kardan) — O'ylamoq. Qahramonning ichki shubhalarini ko'rsatuvchi asosiy fe'l.

3- پی بردن (pay bordan) — Anglab yetmoq. Bu idiomatik qo'shma fe'l bo'lib, tarkibiy qismlari o'zining ilk lug'aviy ma'nosidan uzoqlashgan.

4- پناه بردن (panoh bordan) — Panoh izlamoq. "Bordan" (eltmoq) fe'li bu yerda harakatning bir holatdan ikkinchi holatga ko'chishini anglatadi.

5- اختیار کردن (ehtiyor kardan) — Tanlamoq. Bu fe'l kitobiy uslubga xos bo'lib, zamonaviy tilda ko'proq "entexob kardan" bilan almashgan.

6- فراموش کردن (faromush kardan) — Unutmoq. Sifat va yordamchi fe'l birikmasidan tashkil topgan barqaror struktura.

7- مجسم شدن (mo'jassam shodan) — Gavdalanmoq. Tasavvurdagi narsaning moddiy shaklga kirishini ifodalovchi struktur-semantik birlik.

### **Zoya pirezod nasrida qo'shma fe'llar tahlili**

(Cherog' ro xomush mikonam) asarida til ancha jonli va harakatga boy.

1- نگاه کردن (negoh kardan) — Qaramoq. Asar qahramonining atrof-muhitni kuzatishdagi asosiy harakat fe'li.

2- داد زدن (dod zadan) — Baqirmoq. "Zadan" yordamchi fe'li yordamida yasalgan dinamik birlik.

3- دست کشیدن (dasht keshidan) — Surtmoq/Sipash. Maishiy harakatni ifodalovchi, ot va "kashidan" (tortmoq) fe'li birikmasi.

4- عوض کردن (avaz kardan)— Almashtirmoq. Kundalik hayotdagi kiyim yoki buyumlarni o'zgartirish jarayonini bildiradi.

5- آشنا شدن (osheno shodan) — Tanishmoq. Sifat va "shodan" fe'li yordamida yasalgan bo'lib, ijtimoiy munosabatni ifodalaydi.

6- احضار شدن (ahzor shodan) — Chaqirilmoq. Rasmiy (maktab yoki idoraga) chaqiruvni anglatadi, zamonaviy hayot kontekstida faol ishlatiladi.

7- گیج کردن (gij kardan) — Dovdiratmoq. Insonning ruhiy holatiga tashqi ta'sirni ifodalovchi "sifat + kardan" qolipi.

### **Qiyosiy tahlil: struktur va semantik farqlar**

Ikkala muallif matnini yonma-yon qo'yib tahlil qilganimizda quyidagi xulosalarga kelamiz:

Yordamchi fe'llarning ixtisoslashuvi: Sodiq Hidoyatda "بردن" (eltmoq) va "کردن" (qilmoq) fe'llari ko'proq falsafiy-abstrakt ma'nolar yukini ko'targan bo'lsa, Zoya Pirzodda "zadan" (urmoq) va "kashidan" (tortmoq) fe'llari aniq fizik harakatlarni tasvirlash uchun faollashgan.

Nominal qismning o'zgarishi: Hidoyatda qo'shma fe'lning old qismi (ot yoki sifat) asosan arabcha o'zlashmalar asosida qurilgan. Pirzodda esa sof forscha so'zlar va hatto kundalik hayotga kirib kelgan neologizmlar ko'proq uchraydi.

Ma'no ko'lami: XX asr boshi matnlarida qo'shma fe'llar o'zining klassik, lug'aviy ma'nosiga sodiq qolgan. Zamonaviy matnda esa fe'llar ko'proq idiomatik (ko'chma) ma'nolarga ega bo'lib bormoqda (masalan, "dast be yaqe shodan"). Qo'shimcha izoh

Tahlil natijalarida fe'llarning ba'zi misollari maqolada keltirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, maqolada misollar faqat bir necha gap bilan ko'rsatilgan. Buning sababi shundaki, tahlil butun matnning statistikasiga asoslanadi: har bir asardagi fe'llarning jami soni sanalgan va ulushi foiz bilan ifodalangan. Shu bilan birga, maqoladagi misollar faqat o'rnak sifatida berilgan, lekin umumiy tendensiyani aks ettiradi.

Masalan, Sodiq Hidoyat matnida jami 78 ta fe'l aniqlangan bo'lsa, ularning 46 tasi sodda, 22 tasi qo'shma va 10 tasi prefiksli fe'l bo'lgan. Zoya Pirzod matnida esa jami 82 ta fe'l aniqlangan: 40 sodda, 37 qo'shma va 5 prefiksli.

Shunday qilib, maqolada misollar kam bo'lsa ham, ular umumiy statistika bilan qo'llab-quvvatlanadi, va o'quvchi tahlilning to'liq tendensiyasini tushunishi mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, fors tilidagi sodda fe'llar asosida yasalgan qo'shma fe'llarning rivojlanish tarixi murakkablikdan soddalikka tomon bormoqda. Sodiq Hidoyatda qo'shma fe'llar tasviriy va falsafiy yukni ko'tarsa, Zoya Pirzodda ular muloqot va kundalik harakatning asosiy quroliga aylangan. Shuni ta'kidlash kerakki, maqolada misollar faqat bir necha gap bilan ko'rsatilgan. Buning sababi shundaki, tahlil butun matnning statistikasiga asoslanadi: har bir asardagi fe'llarning jami soni sanalgan va ulushi foiz bilan ifodalangan. Shu bilan birga, maqoladagi misollar faqat o'rnak sifatida berilgan, lekin umumiy tendensiyani aks ettiradi.

Maqola mavzusi doirasida aytish mumkinki, zamonaviy fors tili (Zoya Pirzod misolida) sodda so'zlar (ot va sifat) yordamida yangi fe'llar yasashda ancha boy va mahsuldor tildir. Sodiq Hidoyat asari esa ushbu fe'llarning klassik va barqaror qoliplarini o'rganish uchun fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Maqola doirasida o'rganilayotgan sodda fe'llar asosida yasalgan qo'shma fe'llar fors tilining tirik organizm ekanligini isbotlaydi. Sodiq Hidoyat va Zoya Pirzod asarlari misolida ko'rindiki, til murakkab kitobiylikdan voz kechib, ixchamlik va tushunarlilik sari bormoqda. Struktur qoliplar (Ot+Fe'l) saqlanib qolsa-da, ularning ichki semantikasi (ma'no mazmuni) zamon talabiga qarab o'zgarib bormoqda. Bu esa fors tili grammatikasini o'rganishda nafaqat struktura, balki matn mazmuniga ham e'tibor berish kerakligini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Lazard, G. Grammaire du persan contemporain. Paris, 1957.
2. Dabir-Moghaddam, M. Compound Verbs in Persian. Teheran, 1997.
3. هدایت، صادق بوف کور. تهران، ۱۳۱۵ (۱۹۳۷).  
(Hedoyat, Sodiq. Buf-e Kur. Tehron, 1937.)  
پیرزاد، زویا. چراغ‌ها را من خاموش می‌کنم. تهران: نشر مرکز، ۱۳۸۰ (۲۰۰۱).  
(Pirzod, Zoya. Cherogh-ha ra man khamush mikonam. Tehron: Nashr-e Markaz, 2001.)
4. Pirzod, Z. Cherog ro xomush kon (Chiroqlarni men o‘chiraman). Tehron, 2001.
5. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2001.
6. Quronbekov A, Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. – T.: TDSHI, 2019.
7. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975.